



BADIIY ADABIYOTDA ENG KO'P ISHLATILADI SAN'AT TURLARI

Abdurahmonova Durdona

O'zbekiston Jahon Tillari Universiteti Xorijiy Til Va Adabiyoti Fakulteti

Adabiyot ixlosmandlariga „Badoye' us-sanoye“ degan tushuncha juda tanish, albatta. Chunki ular har qanday kitobni o'qimasin, o'sha asarda yoki har qanday she'rda badiiy san'atni uchratadi. Bu esa o'sha o'qilayotgan asarni tushunish va eng asosiysi juda katta mahoratlikni ifodalaydi. „Badoye' us-sanoye“ so'zining ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, badiiy san'at degan ma'noni bildiradi. „San'at“ so'zi esa arabcha „sun“ so'zidan olingan bo'lib, „yaratmoq“ aniqroq aytganda, badiiylilik yaratish demakdir. Va shuni ham eslatib o'tish kerakki, yuqoridagi ibora ba'zi manbalarda „ilmi bade“ so'zi bilan ham yuritiladi.

Badiiy san'at bizga nima uchun kerak va uning vazifasi nima? degan savol tug'ilishi mumkin barchamizda. Badiiy san'atlar har qanday asarda ifodalangan g'oyaning, mazmunning realligi, ta'sirchanligini, lirik va epik ko'rinishlarning yorqinroq gavdalantirilishini, bayt yoki misralar nazokati, jozibadorligini ta'minlovchi vositalardir. Shu jihatlar uyg'unlashgan holda, ularni quyidagi ikki guruhga bo'lsak bo'ladi:

1. MA'NAVIY (ma'noga tegishli) san'atlar
2. LAFZIY (shaklga oid) san'atlar

Quyida badiiy san'atlarning ba'zilari haqida ma'lumot berib o'taman.

ISTIORA. Badiiy asarda biror so'zning o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda ishlatilishi, ya'ni majoziy yoki ko'chma ma'noda qo'llanilishiga istiora deyiladi. Ma'no ko'chirish deganda, shaxslar, narsalar hatto voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Ma'nosi ham „biron narsani omonatga olmoq (vaqtincha), qarz olmoq“ degan ma'nolarni ifodalaydi. Tuzilishi jihatidan sodda va murakkab ko'rinishda bo'ladi. Misol tariqasida, Navoiyning ikki misrali she'rini olsak bo'ladi:

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar.

Bu misralarda guvohi bo'lganingizdek, „za'faron“ so'zi „sariq yuz“ so'zining, „to'karmen lolalar“ so'zi esa „qonli yosh to'karman“ so'zlari o'rnida qo'llanyapti. Birinchi ibora sodda istiora, ikkinchisi murakkab istiora hisoblanadi. Bundan tashqari Atoiyning

Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum,
Kishi bilmas oni kim, qoldi qanda.
kabi baytlarida ham istiora ishlatilgan.



SAJ'. Nasriy asardagi ayrim bo'laklarning vazn va qofiya orqali moslashishiga saj' deyiladi. Saj arabcha „qofiyali nars” so'zidan kelib chiqqan. Misol uchun: „Ravshanxon bu bog' devorlariga qarasa, tik paxsasini ishlagan, devorining tagini g'ishtlagan, juda mahkam qilib tashlagan, devorlarni ganjlagan...” („Ravshan” dostonidan parcha). Anglagan bo'lsangiz, bu tur boshqa san'at turlariga qaraganda tushunilishi sodda va oson. Gapdagi ketma –ketliklar („ishlagan, g'ishtlagan, tashlagan, ganjlagan”) bu janrning ta'sirchanlik bo'yog'ini ko'rsatib turibdi.

TAJNIS. Tajnis bu- she'r misralaridagi so'z yoki so'zlar birikmasining ma'nosi har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin so'zlar jamlanmasiga aytiladi. Muallif bu janrda bir nechta so'zlar vositasida ohoriy shakldoshlikni yuzaga keltirib, asarga yoki biron she'rga muayyan fikrni, bazi timsollarni ta'sirchan yo'sinda olib kira oladi. Bunga ko'plab misollarni keltirishimi mumkin:

Ulkim ko'ngul oldi zulfi xoli,

Ko'ngludin emas xayoli xoli. (LUTFIY)

Ey bag'ritosh, ko'nglum evin aylama xarob,

Kim surating chizilmish aning ich-u toshinda.(XORAZMIY)

Dastlabki baytda „xoli- xoli” so'zlari asosiy rolni o'ynamoqda, ya'ni birinchi misradagi „zulfi xol” yuzdagi xol donasi bo'lsa, ikkinchi „xayoli xoli” alohida emas degan ma'noda kelyapti. Keyingi baytda „bag'ritosh va tosh” so'zlarida tajnislik mavjud.

Bundan tashqari tajnis san'atini qo'llashda ma'lum bir qoidalarga amal qilishga to'g'ri keladi:

1. Shakli bir xil, biroq ma'nosi har xil so'zlarni qo'llash. Omonim so'zlarga o'xshaydi-yu, lekin aynan u emas.
2. Qofiyaga olingan so'zlar turkumi shakldosh bo'lishi kerak.
3. Tajnis ham lafziy, ham ma'naviy san'at.

TARDI AKS. So'zlar takroriga asoslangan lafziy san'atga tardi aks, ya'ni arabchada „teskari qilib takrorlash” degan tub ma'noni ifodalab keladi. Bunda biz she'rning birinchi misrasidagi so'z yoki so'zlar birikmasini keyingi misrada almashtirib qo'llash orqali tardi aks san'atini yaratamiz. Navoiyning ko'plab she'r-u g'azallari shu janrda yozi;gan:

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur

Kim, jong'a qaro balo bo'lubtur.

Majmu'i davoni dard qildi,

Dardingki, manga davo bo'lubtur.

Balo qaro- qaro balo, davoni dard- dardi davo singari zid qo'llangan so'zlar tardi aksning asosiy qurolidir, desam mubolag'a bo'lmaydi.



TASHBEH. Tashbeh arabcha soʻzdan kelib chiqqan boʻlib, oʻxshatish degan maʼnoda qoʻllanadi. Tub mohiyatidan maʼlum boʻldiki, bu janr biror voqea yoki shunga oʻxshash obrazlarni boshqa narsa va voqeaga qiyoslashdir. Albatta, oʻsha qiyoslanayotgan yoki oʻxshatilayotgan narsalar oʻrtasida qandaydir umumiylik boʻlishi talab etiladi.

Tashbehda oʻxshatilayotgan narsa mushabbah, oʻxshagan narsa mushabbahbihi, oʻxshatish sababi yoki asosi vajhi shabob, eng soʻnggi oʻxshatish vositasi holati tashbeh deyiladi. Holati tashbeh -dek, -day, -cha, -simon, -vor, -saro, -vash, -iy, -misli, kabi, goʻyo, xuddi, yangligʻ, singari va boshqa koʻplab qoʻshimchalar vositasida qiyosiylik yaratiladi.

Masalan:

Qilibdur mahliqolarning yuzini

Latofat musʼhafigʻa oya navroʻz.

Bu misralarda mahliqolar yuzi- oyat, latofat- Musʼhaf (Qurʼon) kabi favqulodda tashbehlar bor.

Shahar chu doʻzax kabi zindon edi,

Tashqari bir ravzai rizvon edi.

„Yusuf va Zulayho“ dostonidan olingan ushbu parchada ham „zindon, rizvon“ kabi oʻxshatmalar mavjud.

Yuqoridagi taʼrif berib oʻtilgan badiiy sanʼat turlaridan tashqari yana koʻplab janrlari mavjud. Binobarin, biz bularning barchasini oʻzbek adabiyotining durdonalari desak, mubolagʻa boʻlmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boqijon Toʻxliyev. Adabiyot litsey darsligi. 2002, 264-268-betlar.
2. REGISTON KUTUBXONASI, metodik qoʻllanma. Sharafjon Sariyev, 2020
3. Internet research: <https://uz.wikipedia.org>.
4. „Oʻzbek tilining izohli lugʻati“ (besh jildlik). Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
5. S. Olim va boshqa, Adabiyot 8-sinf darslik. Toshkent, Oʻzb. nashriyoti-matbaa ijodiy uy. 2010
6. Boqijon Toʻxliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kolleji uchun darslik) Toshkent, Oʻqituvchilar nashriyoti, 2010
7. <https://til-adabiyot.zn.uz>.